

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

G‘ULOMOV BAXTIYORJON DILMURODJON O‘G‘LI

**ZOL-GEL CHO‘KTIRISH USULIDA O‘STIRILGAN ZnO:Al
PLYONKALARINING TUZILMAVIY, OPTIK VA ELEKTROFIZIK
XOSSALARINI TADQIQ QILISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PHD)**

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD)
on physical and mathematical sciences**

G'ulomov Baxtiyorjon Dilmurodjon o'g'li

Zol-gel cho'ktirish usulida o'stirilgan ZnO:Al plyonkalarining tuzilmaviy, optik va elektrofizik xossalarini tadqiq qilish 3

Гуломов Бахтиёржон Дилмуроджон угли

Исследование структурных, оптических и электрофизических свойств ZnO:Al плёнок, выращенных методом золь-гель погружения..... 21

Gulomov Bakhtiyorjon Dilmurodjon ugli

Study of structural, optical and electrophysical properties of ZnO:Al films grown by the sol-gel immersion method..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

G‘ULOMOV BAXTIYORJON DILMURODJON O‘G‘LI

**ZOL-GEL CHO‘KTIRISH USULIDA O‘STIRILGAN ZnO:Al
PLYONKALARINING TUZILMAVIY, OPTIK VA ELEKTROFIZIK
XOSSALARINI TADQIQ QILISH**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PHD)**

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1205 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (WWW.nammti.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar **Zaynabidinov Sirajidin Zaynabidinovich**
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar **Gulyomov Gafur**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Otajonov Salim Madraximovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya institutu huzuridagi ilmiy darajada beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqmlim Ilmiy kengashning 2025-yil “____-_____” soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel/ faks: (99869) 225-10-07; Faks: (99869) 225-76-75. e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 2-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115 Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./Faks: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____”-_____ da tarqatildi.
(2025-yil “____”-_____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.I. Erkaboyev
Ilmiy darajalat beruvchi
Ilmiy kengash raisi f.-m,fd., professor

A.A. Abdukarimov
Ilmiy darajalat beruvchi
Ilmiy kengash kotibi PhD, dotsent

N.Yu. Sharibayev
Ilmiy darajalat beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f.-m,fd.,professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jaxonda so‘nggi 10 yil mobaynida optoelektronika sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, yuqori yorug‘lik o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan shaffof qatlamlarni olish imkoniyatlari aniqlanib, bunda ko‘p hollarda yarimo‘tkazgichli ZnO asosida metalloksidli plyonkalardan foydalanilmoqda. Bunday plyonkalar ayniqsa quyosh energiyasini fotoo‘zgartirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kvant effektlarini hosil qiluvchi shaffof qatlamlarni yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, optoelektronika sohasida yuqori sifatli va barqaror shaffof plyonkalarni ishlab chiqarish hamda ularni samarali qo‘llash imkonini beruvchi ZnO asosidagi plyonkalarni olish texnologiyasini rivojlantirish, turli kirishma atomlarining ta’siri ostida ularning fizik xossalarida yuz beruvchi o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish, shuningdek, hosil bo‘layotgan qatlamlarning bir xil qalinlikda o‘sishini nazorat qilish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonning ko‘plab yetakchi ilmiy markazlarida turli kirishma atomlari kiritilgan ZnO asosidagi plyonkalarni olish usullarini takomillashtirish bilan bir qatorda, ushbu plyonkalar asosida olingan metalloksid qatlamlardan samarali va ko‘p funksiyali optoelektron mahsulotlar yaratish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ularning tuzilmaviy, elektrofizik va optik xossalarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ZnO asosidagi yupqa plyonkalarga Al atomlarini legirlash natijasida hosil bo‘ladigan ko‘pqatlamli tuzilmalar sirt sohalari hamda subkristallarning bo‘linish chegaralarida turli hajmiy nuqsonlarning shakllanishi va ularning material xossalariga ta’siri ustuvor tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Shu bilan birga, ZnO plyonkalarida Al atomlarini legirlash miqdorini boshqarish orqali yuqori samarali va ko‘p funksiyali shaffof elektronika mahsulotlarini yaratish imkoniyatlari kengaymoqda, bu esa zamonaviy optoelektron qurilmalar ishlab chiqish yo‘lida dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida samarali va ko‘p funksiyali optoelektron mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda va ularni jahon standartlariga mos darajaga ko‘tarishga intilish kuchaymoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «Elektrotexnika sohasida ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish»⁵ bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, metalloksid plyonkalar asosida sifatli tuzilmalarni olish, ularning noyob xususiyatlariga kirishma atomlarining ta’sirini o‘rganish va shunday tuzilmalarni optoelektron mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llash muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 30-maydagi PQ-4348-sonli "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tarmoqning investitsiyaviy hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 14-iyuldagi PQ-2772-sonli "Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va 2017-yil 26-maydagi PQ-3012-sonli "2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining IV, "Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish, nanotexnologiya, fotonika va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar ishlab chiqish" ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ayni paytda dunyoning turli ilmiy markazlarida yetakchi olimlar tomonidan shaffof va egiluvchan tagliklarga yarimo'tkazgichli yupqa qatlamlarni o'stirish texnologiyalarini takomillashtirish, ularning tuzilmaviy va noyob fizik xususiyatlariga turli kirishma atomlarining ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, ular asosda samarali va energiyatejamkor gaz, yorug'lik, harorat va bosim sensorlarini yaratish ustida izlanishlar davom etmoqda. Xususan, Xitoylik olimlar Zhou Wang va Dongyun Wan rahbarligidagi ilmiy guruh turli kirishma atomlari kiritilgan ZnO yupqa qatlamlarni sintez qilib, ularning tuzilmaviy xususiyatlari va noyob fizik xossalari ushbu kirishma atomlarining ta'sirini chuqur o'rgandilar. Iroqlik Alaa J. Ghazari va Emad A. Salman, Amerikalik Ü. Özgür hamda Ya. I. Alivov, boshchiligidagi ilmiy maktablar tomonidan ham Al, Mg, Mn, S, va Ni kabi kirishma atomlari kiritilgan ZnO yupqa plyonkalar turli shaffof va egiluvchan tagliklarda shakllantirildi. Bu tajribalar natijasida harorat va yorug'likka yuqori sezgirlikka ega sensorlar hosil qilinib, ularning samaradorligi va energiya tejamkorligi ta'minlandi, bu esa yuqori sezgirlik talab qiladigan zamonaviy elektronika va sensor texnologiyalari uchun muhim ilmiy asos bo'ldi. Rossiyalik S.I. Rembeza boshchiligidagi ilmiy maktab a'zolari yarimo'tkazgichli tagliklarga o'stirilgan ZnO metalloksid qatlamlariga turli kirishma elementlar atomlarini kiritish orqali ularning ma'lum gazlarga nisbatan sezgirlik darajasini oshirish imkoniyatini aniqladilar. Ushbu tadqiqotlar zamonaviy ekologik monitoringi, sensorlar va energiya manbalari sohalarida yuqori sezgirlikka ega yangi avlod qurilmalarini hosil qilish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

Mamlakatimizda akademik S.Z. Zaynabidinov va professor Sh.U. Yuldashev rahbarligidagi ilmiy maktablar tomonidan metalloksid plyonkalarini olishning turli usullari ishlab chiqildi. Bu usullar asosida nanoo'lchamdagi plyonkalar olish, ularning element tarkibini o'zgartirish va olish texnologiyasini takomillashtirish

orqali turli maqsadlar uchun sezgir elektron qurilmalarni hosil qilish imkoniyatlari aniqlandi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlar natijasida tashqi ta'sirlarga sezgir sensorlar va xotira elementlarini ishlab chiqish imkoniyatlari ham namoyish etildi.

Hozirgi vaqtga qadar yarimo'tkazgichli ZnO yupqa plyonkalarining tuzilmaviy, optik va elektrofizik xususiyatlariga turli konsentratsiyadagi kirishma atomlarining ta'siri bo'yicha ishonchli tadqiqot natijalari kamligi va turli tashqi ta'sirlar sharoitida mazkur materiallar asosida olingan qurilmalarning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim muammolar yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universitetining OTM-2-68 "Kristallarda kirishma-nuqsonli mikro va nanobirikmalarning hosil bo'lish mexanizmlari va ularni keng qamrovli funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan ko'pqatlamli tuzilmalar olishdagi roli" (2017-2020 yillar) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi takomillashtirilgan zol-gel cho'ktirish usuli yordamida o'stirilgan yarimo'tkazgichli ZnO yupqa plyonkalarining tuzilmaviy, morfologik, elektrofizik va optik xususiyatlariga Al kirishma atomlarining ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

takomillashtirilgan Zol-gel cho'ktirish usulida yarimo'tkazgichli ZnO plyonkalarini o'stirishning eng maqbul texnologik shart-sharoitlarni aniqlash;

o'stirilgan yarimo'tkazgichli ZnO plyonkalarining tuzilmaviy va morfologik xususiyatlarini aniqlash;

yarimo'tkazgichli ZnO plyonkalarida Al atomlari ta'sirida shakllanadigan nanokristallitlarning tuzilmaviy va morfologik xususiyatlarini o'rganish;

yarimo'tkazgichli ZnO qatlamlarining elektrofizik xususiyatlari va energetik soha tuzilishlariga Al kirishma atomlarining ta'sirini o'rganish;

ZnO:Al turdagi yarimo'tkazgichlarning amaliyotda ko'llanilish istiqbollari aniqlash;

Tadqiqot ob'yekti sifatida borsilikat oyna tagliklariga o'stirilgan, 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida borsilikat shisha tagliklariga o'stirilgan ZnO metalloksid qatlamlarining turli sohalaridagi nomuvozanat zaryadli holatlar tabiati, ularning hosil bo'lish mexanizmlari va fizik-kimyoviy xususiyatlariga alyuminiy kirishma atomlarining ta'siri o'rganish tanlangan.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, borsilikat shisha tagliklarida 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlarini olish uchun zol-gel usulining takomillashtirilgan cho'ktirish qurilmasidan, tuzilmaviy tadqiqotlar uchun XRD-7000 rentgenodifraktometrda, morfologik tadqiqotlar uchun Solver Next atom-kuch mikroskopidan, optik o'tkazuvchanlikni aniqlash uchun Cary Eclipse spektrometridan va elektrofizik kattaliklarni aniqlash uchun HMS-7000 Xoll qurilmasidan foydalanilgan. Olingan natijalarning grafikallari OriginPro2022 dasturi yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bora Zol-gel usulining takomillashtirilgan cho'ktirish qurilmasi yordamida 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan yarimo'tkazgichli ZnO qatlamlari o'stirilgan va eng maqbul texnologik shart-sharoitlar: cho'ktirish tezligi (1 mm/s), issiqlik ishlov harorati (500°C) va vaqti (10 daqiqa) aniqlangan;

o'stirilgan yarimo'tkazgichli ZnO plyonkalarining sirti (002) kristallografik yo'nalishga mansubligi va C6/mmc fazoviy guruhga tegishli panjara doimiylari $a = b = 0.3265$ nm va $c = 0.5212$ nmga teng vyursit tuzilishli geksogonal kristall panjaraga ega ekanligi rentgenodifraksiya usul yoramida aniqlangan;

ZnO plyonkalariga 1% dan 5% gacha Al atomlari kiritilganda, uning elementar katagidagi "c" o'qi 0,0009 nm ga ortgani, shuningdek, sirt sohalarda ZnO va Al atomlarining o'zaro birikishi natijasida panjara doimiysi $a = 0,5791$ nm bo'lgan, Fd3m fazoviy guruhga mansub kub elementar katakchalardan tashkil topgan nanokristallitlar hosil bo'lishi morfologik tadqiqotlar natijalari asosida aniqlangan;

elektrofizik tadqiqot natijalari yordamida ZnO plyonkalariga 1% Al atomlari kiritilganda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi $2,3 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ gacha ortishi, biroq Al atomlari miqdori 5% gacha oshirilganda bu ko'rsatkich $2,9 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ gacha kamayishi aniqlangan;

yarimo'tkazgichli ZnO plyonkalarida Al atomlari miqdori 1% dan 5% gacha oshishi bilan taqiqlangan energetik soha kengligi 3.243 dan 3.318 eV gacha ortishi, mazkur tuzilmalar uchun optik yutilish koeffitsientini qayta hisoblash usuli orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

shaffof va egiluvchan tagliklarga yuqori optik o'tkazuvchanlikka hamda tuzilmaviy barqarorlikka ega bo'lgan metalloksid plyonkalarni sintez qilish uchun Zol-gel usulining cho'ktirish qurilmasi takomillashtirilgan;

o'stirilgan plyonkalarining fotoelektrik tadqiqotlar natijasida, 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlari ko'rinuvchi va yaqin infraqizil sohalarda 74% dan 92% gacha yuqori shaffoflikni namoyon etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi zamonaviy qurilmalar, tasdiqlangan texnologiyalar asosida olingan materiallar va xalqaro tajribada qo'llaniladigan elektr hamda yorug'lik sezuvchi qurilmalardan foydalanishga, shuningdek, natijalarning adabiyotlardagi ma'lumotlar bilan qiyoslanishi, takroriyliigi va umumiy fizikaviy qonuniyatlarga mos kelishiga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

ZnO plyonkalarda kechadigan elektrofizik va fotoelektrik jarayonlarga, tuzilmaviy va morfologik xossalarga alyuminiy kirishma atomlarini ta'sirlarini o'rganish mazkur sohaga tegishli bo'lgan nazariy bilimlar va tushunchalarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlari asosida tayyorlangan tuzilmalar yuqori samaradorlikka ega bo'lgan ko'p funksiyali optoelektron qurilmalarda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Takomillashtirilgan zol-gel cho‘ktirish usuli yordamida o‘stirilgan ZnO yupqa plyonkalarining tuzilmaviy, morfologik, elektrofizik va optik xususiyatlariga Al kirishma atomlarining ta‘sirini tadqiq qilish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadqiqot natijasida olingan xulosalar, ya‘ni 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO yupqa plyonkalari geksagonal kristall panjarasining "c" o‘qi 0,0009 nm ga ortishi, rentgenogrammada (002) kristallografik oriyentatsiyasidagi tuzilmaviy cho‘qqining kichik burchaklar tomon 0,12° ga siljishi, shuningdek, plyonkalar yuzasida ZnO va Al atomlari birikishi natijasida panjara doimiysi $a = 0,5791$ nm bo‘lgan va Fd3m fazaviy guruhga mansub kub elementar katakchalardan iborat konussimon shakldagi nanokristallitlarning hosil bo‘lishi haqidagi ilmiy natijalar fizika-matematika fanlari doktori, professor Sh.X. Yo‘lchiyevning “Yarimo‘tkazgichlarda atomlar diffuziyasi” nomli o‘quv qo‘llanmada foydalanilgan (Andijon davlat pedagogika institutining 2024 yil 7 dekabrda 04-334-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalardan foydalanish ZnO plyonkalarida turli sohalarda yuzaga kelayotgan hajmiy nuqsonlarni kamaytirish imkonini bergan;

o‘stirilgan plyonkalarining elektrofizik tadqiqot natijalariga asosida 1 % Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlarida zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi $2,3 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ gacha ortishi va Al miqdori 5% gacha oshirilganda ular $2,9 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ gacha kamayishi, shuningdek, mazkur holatda ularning harakatchanligi avval 2 % gacha Al atomlari bilan legirlanda $1.81 \text{ sm/V}\cdot\text{s}$ gacha kamayishi so‘ngra 5 % gacha kirishma kiritilganda $8.23 \text{ sm/V}\cdot\text{s}$ gacha ortishi kabi ilmiy-amaliy natijalar “FOTON” AJda ishlab chiqariladigan yarimo‘tkazgichli elektron qurilmalarni tayyorlashda qo‘llanilgan (“O‘zeltexsanoat” aksiyadorlik kompaniyasining 2024 yil 16-sentabrdagi 156-son ma‘lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalardan foydalanish tajribaviy namunalarda elektron texnika vositalarini tayyorlash va ularning optik xossalarni yaxshilash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 2 tasi Scopus ma‘lumotlar bazasida qayd etilgan xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan hamda 2 ta dasturiy taminot bo‘yicha guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosadan tashkil topgan. U 110 sahifada ifodalaniib, 29 ta rasm, 2 ta jadval va 115 ta foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi qisqacha asoslab berilgan, uning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘lanishi aniqlangan. Dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari qisqacha ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan, tadqiqot natijalarining bajarilishi va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining “**ZnO plyonkalarining xossalari va ularning bugungi kun optoelektronikasida qo‘llanilishi**” nomli birinchi bobida ilmiy tadqiqotlar natijalari va adabiyotlar tahlili asosida turli metalloksid plyonkalarining o‘stirish usullari, shu jumladan, ularning tuzilmaviy, elektrofizik va optik xossalariga ta‘sir etuvchi omillar keng yoritilgan. Xususan, metalloksid plyonkalar tarkibiga kiritilgan turli kirishma atomlari, ayniqsa alyuminiy (Al) atomlarining ta‘siri katta e‘tiborga olingan. Bunda ularni tarkibi va xossalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi parametrlar, kirishma kiritishning fizik-kimyoviy jarayonlari, shuningdek, kirishmalarining konsentratsiyasi va ularning plyonkalardagi o‘rni haqidagi ma‘lumotlar tadqiq etilgan. Shuningdek, ushbu bobda ZnO:Al plyonkalarini o‘stirishning turli usullari, masalan, radio chastotali magnetronli purkash, gidrotermal, kimyoviy bug‘larni cho‘ktirish, sentrafugalash (spin – coating) va cho‘ktirish (dip-coating) kabi texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Mazkur bobning muhim jihatlaridan biri sifatida alyuminiy atomlari bilan legirlangan ZnO (ZnO:Al) plyonkalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ular asosida olingan tuzilmalarning istiqbollari keng muhokama qilingan. ZnO:Al plyonkalarining yuqori elektr o‘tkazuvchanligi va optik shaffofligi, ularni hozirgi zamon elektron qurilmalari, ayniqsa sensorlar, tranzistorlar, pyezoelektrik dasturlar va fotoelektrik tizimlarda qo‘llash imkoniyatlarini ochib berishi ta‘kidlangan.

Dissertatsiya ishining “**Namunalar tayyorlash va tadqiqotning eksperimental usullari**” nomli ikkinchi bobida 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO yupqa qatlamlar olish uchun talab etiladigan reagentlar hamda metalloksidli plyonkalarni zol-gel cho‘ktirish usulining takomillashtirilgan qurilmasi yordamida o‘stirishning eng maqbul shart-sharoitlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Mazkur holda zol eritmasi tayyorlash uchun prekursor sifatida sink atsetat ($\text{Zn}(\text{CH}_3\text{COO})_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$), erituvchi sifatida izopropil spirt ($\text{CH}_3\text{CH}(\text{OH})\text{CH}_3$), stabilizator sifatida dietilamin ($\text{C}_4\text{H}_{11}\text{N}$), legirlovchi qo‘shimcha sifatida esa alyuminiy nitrat ($\text{Al}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$) qo‘llanildi. Zol eritmasini tayyorlash uchun sink atsetati (1 gramm) va alyuminiy nitrati (0,041–0,204 gramm) izopropil spirtida (100 ml) eritildi, so‘ngra erituvchanlikni barqarorligini ta‘minlash uchun tomchilatib dietilamin (0,33 ml) qo‘shildi va magnitli aralashtirgich yordamida 60 °C haroratda, 1500 ayl/min tezlikda aralashtirildi, toki eritma shaffof bo‘lguncha. Tayyorlangan zol eritmasini gelga aylantirish uchun maxsus shikafda xona haroratida 168–240 soat davomida saqlandi. Plyonkalarni o‘stirish uchun taglik sifatida borosilikat

shishasidan foydalanildi. Shisha avval distillangan suvdagi ultratovushli vannada tozalanib keyin izopropil spirtida yuvilgan.

Tayyorlangan kirishmasiz va alyuminiy atomlari (1–5%) qo‘shilgan geldan ZnO plyonkalarini o‘stirish uchun optimallashtirilgan cho‘ktirish qurilmasidan foydalanildi. Ushbu qurilmaning afzalligi shundaki, u bir xil qalinlikka ega qoplamalar hosil qilish imkonini berdi. Bu maxsus sterjenning (soat milli xamda unga teskari yo‘nalishda) 1 mm/s tezlikda aylanishi hamda gel quyilgan idishning doimiy sovutilishi va jarayonlarning barchasini dasturlashgan tizim orqali avtomatik boshqarilishi hisobiga amalga oshirildi. Jarayonning optimal takrorlanishi kirishmasiz va kirishmali ZnO yupqa qavatlarini o‘stirishda 40 marta takrorlandi. O‘stirilgan plyonkalar yuzasidan erituvchini olib tashlash uchun ular 500 °C haroratda 10 daqiqa davomida quritish pechida termoishlovga tushirildi.

Bundan tashqari, o‘stirilgan ZnO:Al plyonkalarining turli fizik xossalarini o‘rganish uchun XRD-7000 rentgenodifraktometri, Solver Next atom-kuch mikroskopi, Cary Eclipse spektrometri va HMS-7000 Xoll qurilmalardan foydalanilgan.


Dissertatsiya ishining **“Borosilikat oyna tagliklariga o‘stirilgan ZnO va ZnO:Al yupqa plyonkalarining rentgenospektral va elektronmikroskopik tadqiqotlari”** nomli uchinchi bobida 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO plyonkalarining tuzilmaviy va morfologik xossalari o‘rganilgan.

1-rasmda cho‘ktirish usuli orqali o‘stirilgan kirishmasiz ZnO va alyuminiy atomlari (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan plyonkalarining rentgenogrammasi keltirilgan. 1-a rasmdan ko‘rinib turibdiki, kichik burchakdagi tarqalish holatida kirishmasiz ZnO rentgenogrammasi uchta yuqori intensivlikka ega selektiv tuzilmaviy reflekslarni namoyon etgan. Ular quyidagi kristallografik yo‘nalishlarga taalluqli: (100) burchakda $2\theta = 31.42^\circ$ bo‘lib, $d/n = 0,2774$ nm, (002) burchakda $2\theta = 34.48^\circ$ bo‘lib, $d/n = 0,2581$ nm va (101) burchakda $2\theta = 36.34^\circ$ bo‘lib, $d/n = 0,249$ nm.

Eksperimental ma’lumotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, mazkur reflekslar o‘stirilgan plyonkaning kristall panjara doimiylari quyidagicha ekanligini ko‘rsatadi: $a = b = 0,3265$ nm va $c = 0,5212$ nm.

Bundan tashqari, 47.0° – 47.48° burchaklar oralig‘idagi tarqalish soxasida ikkita tuzilmaviy refleks kuzatildi, ulardan biri (111) kristallografik yo‘nalishga (taglik uchun), ikkinchisi esa (102) yo‘nalishga (ZnO plyonkasi uchun) taalluqli.


Shuningdek, rentgenogrammada quyidagi kristallografik yo‘nalishlarga mos keladigan qatorlar kuzatilgan: (110) burchakda $2\theta = 56.67^\circ$ bo‘lib, $d/n = 0,1630$ nm va (103) burchakda $2\theta = 62.93^\circ$ bo‘lib, $d/n = 0,1481$ nm. Bu ma’lumotlar subkristall bo‘linish chegaralarida 12.6 nm va 28.3nm o‘lchamli polikristall sohalar, shuningdek, ZnO plyonkalarining sirtiy sohalarida 56.8 nm o‘lchamli nanokristallar hosil bo‘lishini tasdiqlaydi. 1-b, c, d, e va f rasmlarda Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan ZnO yupqa plyonkalarining rentgenogrammasi keltirilgan bo‘lib, ular kirishmasiz ZnO rentgenogrammasidan ancha farq qiladi. Ko‘rinib turibdiki, kichik burchakli sochilishlarda kuzatilgan diffuzion akslanishning elastik fon satxi legirlovchi atomlar konsentratsiyasi ortib borishi bilan kamaygan.



1-rasm. Legirlanmagan (a) va Al (1% dan 5% gacha) kirishma atomlari bilan legirlangan ZnO plyonkalari rentgenogrammaslari (b – 1%, c – 2%, d – 3%, e – 4%, f – 5%).

2-rasmdan (002) kristallografik yo‘nalishiga tegishli asosiy tuzilmaviy refleks burchakning kichikroq tomoniga ($2\theta = 34.44^\circ$ dan $2\theta = 34.32^\circ$ gacha) siljishi aniqlangan, bu esa $\Delta\theta = 0.12^\circ$ ga teng bo‘lib legirlovchi Al atomlari konsentratsiyasining ortishi bilan sodir bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Tajriba ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki Al atomlari kiritilgan plyonkalarining xona haroratidagi kristall panjara qiymatlari $a \approx b \approx 0.3265$ nmga va $c \approx 0.5219$ nmga teng ekanligi hamda geksagonal kristall panjaraning c tomoni kichik ($\Delta c \approx 0.0009$ nm) qiymatga ortayotgani aniqlandi. Bu esa o‘z navbatida shakllanyotgan plyonka kristall panjarasida Al atomlari Al^{+3} ga ionlanib, ular Zn^{+2} ionlari bilan o‘zaro o‘rin almashinyotganidan dalolat beradi. Shuningdek, 2-rasmdan (002) reflekslarining yarim kengligi (FWHM) avval ortib (Al atomlari bilan 3% gacha legirlanganda), keyin esa kamayadi (Al miqdori 3% dan oshganda).









2-rasm. Legirlanmagan va Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan ZnO plyonkalari rentgenogrammasida (002) refleksining shakli va uning yarim kengligini o'zgarishi.

Bu subkristallitlarning turli kirishma konsentratsiyalaridagi o'lchamini aniqlash imkonini beradi: bunda avval subkristallitlarning o'chami kichrayib borishini ($D_0 = 39.5$ nm, $D_{1\%Al} = 37.9$ nm, $D_{2\%Al} = 34.1$ nm), keyin esa kattalashishini ($D_{3\%Al} = 34.4$ nm, $D_{4\%Al} = 35.2$ nm, $D_{5\%Al} = 35.8$ nm) ko'rish ham mumkin. ZnO va Al₂O₃ birikmalarining o'zaro almashinuvi natijasida Al bilan legirlangan ZnO plyonkalari rentgenogrammasida $2\theta = 58.23^\circ$ burchakda $d/n = 0,1574$ nm qiymatida kristallografik yo'nalish (511) ga tegishli tuzilmaviy chiziqlar kuzatilgan.

Bu reflekslarning fazaviy tahlili ularning boshqa bir fazada, ya'ni Fd3m fazaviy guruhga mansub, kristall panjarasi doimiysi 0,5791 nm bo'lgan kubik elementar kataklar hosil bo'lganligini ko'rsatadi. Bu ZnO plyonkalari sirtga yaqin sohalarida (511) yo'nalishga ega nanokristallitlar hosil bo'lganligini tasdiqlaydi. (511) reflekslarning yarim kengligi (FWHM) asosida nanokristallitlar o'lchamlari aniqlandi. Ushbu o'lchamlar Al konsentratsiyasining ortishi bilan o'zgarib, mos ravishda 31 nm, 42 nm, 31 nm, 26 nm va 25 nm ni tashkil qiladi.

3-a, b, c, d, e va f rasmlarda kirishmasiz va Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan ZnO plyonkalari uchun AKM tasvirlari va ularning taqsimot profillari keltirilgan. Rasmlardan ko'rinib turibdiki, ZnO plyonkalari o'stirilgan borosilikatli taglik yuzasida turli o'lchamdagi konussimon geometrik shakilga ega nanoobyektlar hosil bo'lgan. ZnO plyonkalarining AKM tasvirlari taqsimot profillarini tahlil qilish natijasida, kirishmasiz va Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan plyonkalarda hosil bo'lgan konussimon nanoobyektlarning asos diametri (d) va balandligi (h) aniqlandi. Olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.



3- rasm. Kirishmasiz va Al atomlari 1% dan 5% gacha kiritilgan ZnO plyonkalarining AKM tasvirilari va taqsimlanish profillari


Plyonkalarda hosil bo'lgan konussimon nanoobyektlarning balandliklari (h)

Al %	Legirlanmagan	1	2	3	4	5
$h, (nm)$	55,6	30,3	42,7	32,4	25,8	26,9


Morfologik tahlil natijalari turli kristall panjaralarga ega moddalarning tuzilmaviy parametrlari bir-biriga mos kelmasligini ko'rsatdi, bu esa o'stirilgan plyonkaning kristall panjarasida ehtimoliy kuchlanishlar paydo bo'lishi va ushbu kuchlanishlar uch o'lchamli nanoobyektlar hosil bo'lishiga olib kelishi hamda ular asta-sekin yuzaga chiqib, o'z-o'zidan nanoobyektlarga birlashishi mumkin.

“Yarimo'tkazgichli ZnO va ZnO:Al yupqa plyonkalarining elektrofizik va optik xossalari” nomli to'rtinchi bobida 1%–5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO plyonkalarining elektrofizik va optik xossalari o'rganilgan.

4-rasmda Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan ZnO plyonkalarining solishtirma qarshiligini kirishma konsentratsiyasiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, o'stirilgan plyonkalarining solishtirma qarshiligi Al kirishma atomlarining miqdoriga qarab o'zgarib turadi.



4-rasm. ZnO plyonkalar solishtirma qarshiligi (ρ) ning legirlovchi Al atomlari miqdoriga bog'liq o'zgarishi.



5-rasm. ZnO plyonkalarida legirlovchi Al atomlari miqdoriga bog'liq xolda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi (N_e) o'zgarishi.

Bizning hol uchun ZnO plyonkalarining solishtirma qarshiligi Al miqdori taxminan 1% bo'lganida nisbatan past ($\rho = 0,57 \text{ Om} \cdot \text{sm}$) bo'ldi, ammo Al 5% gacha legirlanganda $\rho = 2,4 \text{ Om} \cdot \text{sm}$ ga yetdi. Bu ma'lumotlar rentgenotuzilmaviy tahlil natijalari bilan tasdiqlanadi².

Al kirishma atomlari miqdori 1% bo'lganida, subkristallitlar chegaralarida adsorbsiyalangan va zaryad tutish markazlari vazifasini bajaradigan kislorodning notekis taqsimlanishi kamayadi. Biroq, Al miqdori 2% dan oshganda, yangi hajmiy

² Зайнабидинов С.З., Гуломов Б.Д., Бобоев А.Й., Расулова М.Б. Оптимизированное устройство dip-coater для получения металлооксидов // Физика полупроводников и микроэлектроника. 2022. Т. 4. В. 3-4. С. 32-40.

nuqsonlarning tez shakllanishi kuchayadi. Bu nuqsonlar zaryad tashuvchilar konsentratsiyasini oshirishga yordam bermaydi va kristall panjaraning buzilishiga olib keladi. Bu esa ZnO strukturasi Al₂O₃ kabi elektr tokini o'tkazmaydigan birikmalarning shakllanishi bilan izohlanadi.

5-rasmda Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan ZnO plyonkalaridagi zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi (N_e) grafigi keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, kirishma Al atomlari konsentratsiyasi 1% bo'lganida zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi $2,3 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ gacha ko'payadi, biroq Al atomlari miqdori 5% ga yetganda zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi $2,9 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ gacha kamayadi. Al kirishma miqdori 1% bo'lganida, Al atomlari kristall panjaradagi Zn²⁺ atomlari o'rnini egallaydi, bu esa Al⁺³ va ZnO⁺² ionlarining zaryadlari farqi xisobiga qo'shimcha erkin elektronlar hosil bo'lishiga olib keladi³. Biroq, Al miqdori oshganda erkin zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi kamayadi, bu panjaraning buzilishi va Al³⁺ neytrallanishi bilan izohlanadi. Bu esa plyonkalar solishtirma qarshiligining oshishiga olib keladi.


6-rasmda Al kirishma atomlari miqdoriga bog'liq holda ZnO plyonkalaridagi zaryad tashuvchilar harakatchanligi (μ_e) grafigi keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, Al miqdori 2% gacha bo'lganida zaryad tashuvchilar harakatchanligi (μ_e) kamayadi, biroq u 2% dan ortgandan keyin asta-sekin ortib boradi. ⁴Tadqiqot ishi mualliflari o'z ishlarida Al kirishma atomlari miqdori oshganida ZnO plyonkalarida subkristallitlar o'lchami kamayishi, shuningdek, zaryad tashuvchilar harakatchanligining pasayishi kuzatilganini qayd etishgan.

Bizning holda, Al miqdori 2% gacha oshganda ZnO plyonkalarida subkristallitlar o'lchami kamaygan, keyin esa Al konsentratsiyasining ortishiga qarab ularning o'lchami oshgan. Subkristallitlar o'lchamining kamayishi subkristallarning bo'linish chegaralar sonining ko'payishiga va elektronlarning erkin harakatlanish uzunligining qisqarishiga olib keladi. Aksincha, subkristallitlar o'lchamining oshishi va chegaralar sonining kamayishi elektronlarning erkin harakat uzunligining ko'payishiga yordam beradi. Shu sababli, Al bilan legirlangan ZnO plyonkalarida zaryad tashuvchilar harakatchanligi avval kamayadi, keyin esa subkristallitlar o'lchamiga bog'liq holda ortib boradi.

7-a rasmda sof va Al (1% dan 5% gacha) atomlari bilan legirlangan ZnO plyonkalari optik o'tkazuvchanlik spektrlari keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, barcha yupqa plyonkalarda optik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti 74% dan 92% gacha bo'lib, bu ko'rsatkichlar Al atomlari miqdoriga bog'liq holda o'zgaradi. Bunday yuqori o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti odatda yorug'lik nurlanishi (002) kristallografik yo'nalishi, ya'ni olingan namunalar geksagonal kristall panjarasi "c" o'qi bo'ylab yo'naltirilganda kuzatiladi. Avval qayd etilganidek, ZnO plyonkalari Al atomlari bilan legirlanganda geksagonal panjaraning "c" va "a" o'qlari Al kirishma atomlari konsentratsiyasining oshishiga bog'liq ravishda o'zgarishi kuzatiladi.

³ Jijun Ding et al. Influence of Al-doping on the structure and optical properties of ZnO films // *Physica B: Condensed Matter*. 2009. Jijun Ding V. 404. Iss. 16. Pp. 2439-2443. doi.org/10.1016/j.physb.2009.05.006


⁴ Panagiota Koralli et al. Comparative Studies of Undoped/Al-Doped/In-Doped ZnO Transparent Conducting Oxide Thin Films in Optoelectronic Applications // *Chemosensors* 2022, 10, p.1-15.



6-rasm. ZnO plyonkalarida legirlovchi Al atomlari miqdoriga bog‘liq harakatchanligi (μ_c) o‘zgarishi.

Shuningdek, Al atomlari bilan har xil konsentratsiyalarda legirlash plyonka tarkibidagi subkristallitlar o‘lchamlarining o‘zgarishiga olib kelgan. Bu, o‘z navbatida, o‘stirilgan plyonkalarining optik o‘tkazuvchanligining 74,33% gacha pasayishiga sabab bo‘lgan.

450–650 nm diapazonidagi ZnO va ZnO:Al plyonkalari o‘tkazuvchanlik spektrlarida subkristallitlar chegaralari va plyonka yuzalarining kristallitlarga ta’siri natijasida o‘tkazuvchanlik darajasining pasaygan joylari kuzatiladi. Shuningdek, 7-*a* rasmdan ko‘rinib turibdiki, legirlanmagan plyonkalar UB sohada taxminan 381 nm da emissiya chegarasini namoyon qiladi. Al (1% dan 5% gacha) bilan legirlangan plyonkalar esa mos ravishda 382 nm, 379 nm, 376 nm, 374 nm va 373 nm da emissiya piklarini namoyon qiladi.



7-rasm. Sof va Al (1% dan 5% gacha) atomlari bilan legirlangan ZnO plyonkalari uchun optik o‘tkazuvchanlik (a) va yutilish (b) spektrlari.

Ushbu eksperimental ma’lumotlar asosida ZnO yupqa plyonkalari uchun taqiqlangan soxa kengligini quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$\alpha hv = A(hv - E_g)^{1/2} \quad (1)$$

bu yerda hv – foton energiyasi, A – optik yutilish proporsionallik koeffitsienti, E_g – taqiqlangan sohaning kengligi. Shuningdek, yutilish koeffitsiyenti (α)

o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (T) asosida quyidagi formula orqali hisoblanishi mumkin:

$$\alpha = \frac{1}{d} \ln \frac{1}{T} \quad (2)$$

bu yerda d – shisha qalinligi. Hisoblangan qiymatlar 2-jadvalda keltirilgan.

Shuningdek, ZnO va ZnO:Al plyonkalari o'tkazuvchanlik spektrlari asosida $(\alpha hv)^2$ ni hv ga bog'liqlik spektrlarini ko'rish mumkin (7-b rasm).

2-jadval

ZnO plyonkalari taqiqlangan soxa kengligini hisoblangan qiymatlari

Al %	Legirlanmagan	1	2	3	4	5
$\lambda, (nm)$	381	382	379	376	374	373
$E_g (eV)$	3.243	3.239	3.26	3.29	3.307	3.318
E_u, meV	433.4	511.7	500.7	535.3	555.7	600.3

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, ZnO plyonkalari uchun taqiqlangan soha kengligi Al miqdori ortishi bilan 3,243 eV dan 3,318 eV gacha oshadi. Taqiqlangan soha kengligining bunday oshishi Burshteyn-Moss effekti, ya'ni legirlangan yarimo'tkazgichlarda Fermi sathining o'tkazuvchanlik zonasiga siljishi bilan izohlanadi⁵. Bu effekt yutilish chegarasining qisqa to'liqinli sohaga siljishi bilan bog'liq bo'lib, zaryad tashuvchilarning zonalardan birini to'ldirishi natijasida yuzaga keladi. Ma'lumki, yutilish koeffitsiyenti (α) yutilish spektrining past energiyali sohalarida ($h\nu < E_g$) foton energiyasi bilan eksponensial bog'liqlikka ega bo'lib, u o'stirilgan plyonkalarining kristall panjarasidagi turli nuqsonlar bilan bog'liq:

$$\alpha = \alpha_0 \exp\left(\frac{h\nu - E_g}{E_u}\right) \quad (3)$$

bu yerda α_0 – doimiy, E_u – Urbax energiyasi bo'lib, u lokalizatsiya qilingan elektron holatlari (ya'ni, elektronlar ma'lum bir joyda to'planib qolishi) va kristall tuzilishidagi mikrotuzilmaviy o'zgarishlar (masalan, kristall panjara buzilishlari, kirishmaviy atomlar va boshqa defektlar) o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Agar (3) ifoda chiziqli bog'liqlikka keltirilsa, Urbax energiyasini aniqlovchi quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$E_u = (h\nu - E_g) \ln \frac{\alpha_0}{\alpha} \quad (4)$$

Bundan tashqari, Urbax energiyasi (E_u) ni (3) ifoda yordamida $h\nu$ funksiyasi sifatida $(\ln \alpha)$ grafigini tuzish orqali aniqlash mumkin. ZnO va ZnO:Al plyonkalari uchun Urbax energiyasining hisoblangan qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, E_u qiymati Al atomlari bilan 2% gacha legirlanganda kamayadi, keyin esa 2% dan oshganda ortmoqda. Bu holat plyonkalar hajmidagi

⁵ Zhai et al. Effects of Al Doping on the Properties of ZnO Thin Films Deposited by Atomic Layer Deposition // Nanoscale Research Letters. 2016. V. 11. № 407. Pp.1-8. DOI 10.1186/s11671-016-1625-0

subkristallitlarning o'lchami bilan bog'liq. Bizning holda, Al miqdori 2% gacha kiritilganda subkristallitlar o'lchami kamaygan, bu kichik subkristallitlar chegaralarida elektr maydoni ta'siri ostida holatlar zichligining buzilishiga olib kelgan. Al 2% dan oshganda subkristallitlar o'lchami oshishi natijasida holatlar zichligining buzilishi kamaygan. Bundan tashqari, o'stirilgan ZnO va ZnO:Al plyonkalari o'tkazuvchanlik spektrining eksperimental ma'lumotlari asosida so'nish koeffitsiyenti (k) quyidagi formula orqali hisoblangan:

$$k = \frac{\alpha\lambda}{4\pi} \quad (5)$$

To'lqin uzunliklari bilan bog'liq barcha hisoblangan qiymatlar 8-a rasmda keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, Al atomlari miqdori oshishi bilan ko'rinuvchan diapazongacha bo'lgan to'lqin uzunliklarida so'nish koeffitsiyenti (k) qiymatlari kamayadi. Ko'rinuvchan diapazonda esa (k) qiymatlari Al kirishma atomlari konsentratsiyasining o'sishi bilan ortadi. ⁶Tadqiqot ishi mualliflarining fikriga ko'ra, yutilish koeffitsiyenti (k) qiymatlarining o'zgarishi yuza notekisliklari bilan bog'liq: yuza notekisligi oshganda (k) qiymati oshadi, kamayganda esa pasayadi. Bizning holda, o'stirilgan plyonka sirtida ZnO va Al₂O₃ birikmalari asosida hosil bo'lgan nanokristallitlar o'lchami avval oshgan, keyin esa Al kirishma atomlari miqdori ortishi bilan kamaygan. Bu, o'z navbatida, yutilish koeffitsiyenti (k) qiymatlarining turli to'lqin uzunliklarida turlicha bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ZnO va ZnO:Al plyonkalarining sindirish ko'rsatkichlari (n) optik o'tkazuvchanlik ma'lumotlari asosida quyidagi formulalardan foydalanib hisoblandi:

$$n(\lambda) = (N - (N^2 - n_0^2 \cdot n_1^2)^{\frac{1}{2}})^{\frac{1}{2}} \quad (6)$$


$$N = \frac{2n_0 \cdot n_1 (T_M - T_m)}{T_M \cdot T_m} + \frac{n_0^2 + n_1^2}{2} \quad (7)$$

Bu yerda T_M va T_m – optik o'tkazuvchanlikning maksimal va minimal qiymatlari, (n_0) va (n_1) esa havo va taglikning sindirish ko'rsatkichlari.

8-b rasmda ZnO va ZnO:Al yupqa plyonkalari uchun to'lqin uzunligiga bog'liq holda sindirish ko'rsatkichi (n) ni o'zgarish grafiklari keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, ko'rinuvchan soxada sindirish ko'rsatkichi (n) Al kirishma atomlari miqdori oshishi bilan pasayadi. ⁷Tadqiqot ishida ZnO plyonkalari sindirish ko'rsatkichi (n) turli Al atomlari miqdorida o'rganilgan. Unda, sindirish ko'rsatkichi Al kirishma atomlari miqdori ortishi bilan asta-sekin pasayadi, deb topilgan, Al³⁺ ning ion radiusi Zn²⁺ radiusidan kichikroq, Al ionlari Zn ionlarining o'rniga joylashishi kristall panjara "c" o'qi yo'nalishi bo'yicha panjara kengayishini kamayishiga sabab bo'ladi.

⁶ Ozgur, U., Alivov, Y. I., Liu, C., et al. A comprehensive review of ZnO materials and devices. Journal of Applied Physics 98, 041301 (2005).

⁷ Affa Rozana Abd Rashid. Influence of Annealing Temperature on Optical Properties of Al Doped ZnO Nanoparticles via Sol-gel Methods. AIP Conf. Proc. 1972, 030006 (2018). doi.org/10.1063/1.5041227



8-rasm. Olingan plyonkalarining kirishma miqdoriga bog‘liq ravishda nur yutish koeffitsienti (k) va nur sindirish koeffitsientlarining (n) tushayotgan yorug‘lik to‘lqin uzunligiga bog‘liqlik grafiklari.

XULOSA

“Zol-gel cho‘ktirish usulida o‘stirilgan ZnO:Al plyonkalarining tuzilmaviy, optik va elektrofizik xossalarini tadqiq qilish” mavzusida olib borilgan ushbu tadqiqotlar asosida quyidagicha hulosalar qilindi:

1. Shaffof va egiluvchan tagliklarga yuqori optik o‘tkazuvchanlikka hamda tuzilmaviy barqarorlikka ega bo‘lgan metalloksid plyonkalarini sintez qilish uchun Zol-gel usulining cho‘ktirish qurilmasi takomillashtirildi.
2. Zol-gel usulining takomillashtirilgan cho‘ktirish qurilmasi yordamida krishmasiz va 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlari o‘stirilgan va olingan plyonkalar uchun eng maqbul texnologik shart-sharoitlari (cho‘ktirish tezligi (1 mm/s), issiqlik ishlov harorati (500°C) va vaqti (10 daqiqa)) aniqlandi.
3. Xona haroratidagi kristall panjara qiymatlari $a = b = 0.3265$ nmga va $c = 0.5212$ nmga teng ZnO plyonkasi 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlanganda geksagonal elementar katagining “c” o‘qi 0.0009 nm ga ortishi aniqlandi.
4. O‘stirilgan plyonkalar sirtida ZnO va Al atomlari birikib, konussimon geometrik shakldagi nanokristallitlarni hosil qilishi, shuningdek, ushbu nanokristallitlar $Fd3m$ fazoviy guruhiga mansub va panjara doimiysi $a = 0,5791$ nm bo‘lgan kub elementar katakchalardan tashkil topishi aniqlandi.
5. 1 % Al bilan legirlangan ZnO qatlamlarida zaryad tashuvchilar konsentrasiyasi $2,3 \cdot 10^{18} \text{ sm}^{-3}$ gacha ortishi va Al miqdori 5% gacha oshirilganda ular $2,9 \cdot 10^{17} \text{ sm}^{-3}$ gacha kamayishi, shuningdek, mazkur holatda ularning harakatchanligi avval 2 % gacha Al atomlari bilan legirlanganda $1.81 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ gacha kamayishi so‘ngra 5% kirishma kiritilganda $8.23 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$ gacha ortishi aniqlandi.
6. Al atomlari 1% dan 5% gacha kiritilgan ZnO plyonkalarida emissiyaviy cho‘qqilar mos ravishda 382 nmdan 373 nmgacha kamayishi, energetik soha kengligi esa 3.243 dan 3.318 eV gacha ortishi aniqlanib, bu Fermi sathini o‘tkazuvchanlik sohasi tomon siljishi bilan izohlandi
7. O‘stirilgan plyonkalarining fotoelektrik tadqiqotlar natijasida, 1% dan 5% gacha Al atomlari bilan legirlangan ZnO qatlamlari ko‘rinuvchi va yaqin infraqizil sohalarda ishlaydigan shaffof optoelektron qurilmalarida foydalanish mumkinligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.11.2022.FM/Т.66.04 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО – ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

ГУЛОМОВ БАХТИЁРЖОН ДИЛМУРОДЖОН УГЛИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУРНЫХ, ОПТИЧЕСКИХ И
ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ZnO:Al ПЛЁНОК,
ВЫРАЩЕННЫХ МЕТОДОМ ЗОЛЬ-ГЕЛЬ ПОГРУЖЕНИЯ**

01.04.10 – Физика полупроводников

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по Физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.4.PhD/FM1205

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете и Андижанском машиностроительном институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Зайнабидинов Сиражидин Зайнабидинович доктор физико-математических наук, академик
Официальные оппоненты:	Гулямов Гафур доктор физико-математических наук, профессор Отажонов Салим Мадрахимович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» ____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/30.11.2022.FM/T/66/04 при Наманганском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская - 7. Административное здание Наманганского инженерно - технологического института, 1-этаж, малый зал совещаний, Тел/факс: (99869) 225-10-07; Факс: (99869) 225-76-75. e-mail: niei_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрирована за №____) по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская – 7, Тел. (99869) 228-76-70.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от «___» _____ 2025 г.).

У.И. Эркабоев
председатель Научного совета по присуждению,
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

А.А. Абдукаримов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Н.Ю. Шарibaев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире за последние 10 лет в результате научных исследований в области оптоэлектроники были выявлены возможности получения прозрачных покрытий с высокой светопрозрачностью, причем в большинстве случаев используются металлооксидные плёнки на основе ZnO. Подобные пленки играют важную роль в создании прозрачных слоев, генерирующих квантовые эффекты, которые особенно важны при фотопреобразовании солнечной энергии. При этом особое внимание уделяется разработке технологии получения пленок на основе ZnO, позволяющей производить качественные и стабильные прозрачные пленки и эффективно применять их в области оптоэлектроники, глубоко изучать изменение их физических свойств под воздействием различных легирующих атомов, а также контролировать рост получаемых слоев до одинаковой толщины.

Во многих ведущих научных центрах мира, помимо совершенствования методов получения пленок на основе ZnO с различными легируемыми атомами, проводятся исследования по изучению их структурных, электрофизических и оптических свойств с целью выявления возможностей создания эффективных и многофункциональных оптоэлектронных изделий из слоев оксидов металлов, полученных на основе этих пленок. В частности, одним из приоритетных направлений исследований считается изучение образования различных объемных дефектов на поверхностных участках и границах скола субкристаллов многослойных структур, сформированных путем легирования атомов Al в тонкие пленки на основе ZnO, и их влияние на свойства материалов. При этом расширяются возможности создания высокоэффективных и многофункциональных прозрачных электронных изделий за счет управления количеством легирования пленок ZnO атомами Al, что рассматривается как одна из актуальных научных задач на пути создания современных оптоэлектронных приборов.

В последние годы в нашей республике в рамках проводимых реформ в различных социально-экономических сферах уделяется особое внимание повышению качества научно-исследовательских работ по разработке технологий создания эффективных и многофункциональных оптоэлектронных продуктов и их приведению в соответствие с мировыми стандартами. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, в частности, определены задачи по «Развитию научных исследований и опытно-конструкторских работ в области электротехники»¹. В реализации этих задач важное значение имеет создание качественных структур на основе металлооксидных пленок, изучение влияния примесных атомов на их уникальные свойства, а также использование таких структур в производстве оптоэлектронных продуктов.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы».

